

XORAZM MADRASALARINING TARIXIY BOSQICHLARI

Boltayeva Poshshajon Rashidovna

“Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazmdagi madrasalarning tarixiy rivojlanish jarayoni va madrasalarning bujarayonda siyosatdagi tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Damashq, Bag‘dod, Marv, Buxoro, Samarqand, Kat, Gurganj, Xiva, Andalusiya, Faxriddin Abu Abdulla Muhammad ibn Umar ar-Roziy, Muhammad ibn Ahmad ibn Ali an-Nasaviy, nishopurlik Muhammad Abdujalil al-Umariy Rashididdin Vatvot, isfahonlik Abu Madar Sharif al-Isfahoniy.

HISTORICAL STAGES OF KHOREZM MADRAS.

ABSTRACT

This article provides information about the historical development of madrasahs in Khorezm and the role of madrasahs in politics during this period.

Keywords: Damashq, Bag‘dod, Marv, Buxoro, Samarqand, Kat, Gurganj, Xiva, Andalusiya, Faxriddin Abu Abdulla Muhammad ibn Umar ar-Roziy, Muhammad ibn Ahmad ibn Ali an-Nasaviy, Muhammad Abdujalil al-Umariy Rashididdin Vatvot, Abu Madar Sharif al-Isfahoniy.

Ma’lumki, Xorazm jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi o‘choqlaridan biridir. Bu muqaddas o‘lka ming yillarga borib taqaladigan boy tarixi, yuksak madaniyati, ilm-fani va ilg‘or falsafiy tafakkuriga ega bo‘lgan. Bundan deyarlik uch yarim – to‘rt ming yillar oldin shu muqaddas zaminda o‘zbek davlatchiligining ilk poydevori qo‘yilgan, sug‘orma dehqonchilik va noyob irrigatsiya inshootlari vujudga kelgan, shahar hayoti, madaniyat va ilm-fan an’analari rivoj topgan.

Arablar fathidan keyin VIII-IX asrlardan boshlab xalifalikka qarashli hududlarda islom dinining keng tarqalishi bilan uni o‘rganish va targ‘ib qilishga hamda boshqaruv ishiga layoqatli bo‘lgan kadrlar tayyorlashga ehtiyoj tug‘ildi. Shu munosabat bilan xalifalikka qarashli Damashq, Bag‘dod, Marv, Buxoro, Samarqand, Kat, Gurganj va Xivadan tortib to Andalusiyaigacha bo‘lgan shaharlarda musulmon maktablari va madrasalar paydo bo‘ladi.

Islom dinining keng yoyilishi bilan Xorazmda IX-XIII asrlarda madrasa ta’limi ham rivoj topadi. Madrasai oliyalarda islomiy ilmlar bilan bir qatorda, talabalarga dunyoviy fanlar: matematika, astronomiya, fizika, geometriya, geografiya, tabobat, musiqa, tarix, adabiyot, arab va fors tillari, mantiq va falsafa o‘qitilganligi ma’lum. Madrasai oliyalar o‘sha davrning universiteti vazifasini bajargan.

O'rta Osiyoda, shuningdek, Xorazmda dastlabki madrasalar Kat va Gurganjda IX asr oxiri va X asr boshlarida vujudga keladi. Xorazmning Kat, Gurganj, Xiva, Xazorasp kabi shaharlari o'sha davrda Sharqning eng yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan sanalgan. Katdagi madrasada Abu Nasr Iroq kabi o'z zamonasining mashhur olimi, astronomi, matematigi mudarrislik qilgan. Abu Rayhon Beruniy Kat madrasasida ustozidan tahsil olib, etuk olim bo'lib etishgan.

XI-XIII asrlarda Anushteginlar sulolasiga mansub xorazmshohlar davrida poytaxt Gurganjning iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatida mavqei kuchayadi. Maktab va madrasalar qurilishi kengayib, ilmiy tadqiqot ishlari yanada rivoj topadi. Shu o'rinda arab tarixchisi al-Muqaddasiy, Yoqut Hamaviylarning quyidagi so'zlarini eslash o'rinlidir: «Xorazmliklar aql-idrokli, ilimli, fiqx ilmida o'ta qobiliyatli hamda bilimli kishilardir», - deb yozadi al-Muqaddasiy. Yoqut Hamaviy esa «Men jahonning biror joyida Xorazmning poytaxti Gurganjga o'xshagan ulug'vor, benihoya boy va go'zal, aholisi bilimdon shaharni ko'rmaganman», - deb ta'rif beradi. «Darhaqiqat, bundan ming yil avval Xorazm Ma'mun akademiyasi jahon sivilizatsiyasi tarixida yorqin iz qoldirgan va munosib o'rin egallagan ilm dargohidir», - degan edi Prezidentimiz Islom Karimov Xorazm Ma'mun akademiyasining ming yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida.

Xorazmshohlar davrida Buxoroning Dehqon tumanida Xizonatul-kutub Dorul-fuqaro – xalq kutubxonasi ochilgan bo'lib, bu erda nodir qo'lyozmalar saqlanar edi.

Takash shohlik davrida, Gurganchda kata madrasa va kutubxona quriladi. Mazkur kutubxona mintaqada eng katta kutubxonalardan bo'lib, unda juda ko'p va nodir, qimmatli kitoblar saqlanadi. Mashhur dindor Faxriddin Abu Abdulla Muhammad ibn Umar ar-Roziy (1210-yilda vafot etgan) bu kutubxona fondidan foydalanib Xorazm shohi Takash uchun o'zining «Ilmlar majmuasi» nomli qomusiy asarini yaratadi. Bu asarda ilmning 57 xil sohasi bo'yicha ma'lumotlar yig'ilgan edi. 1980 yilda Ko'hna Urganchda o'tkazilgan arxeologik qazish paytida bu madrasa va kutubxonaning poydevori topilgan. Kutubxona, uning asoschisi Takash vafotidan keyin ham deyarlik chorak asr davomida ilm-ma'rifat ahliga xizmat ko'rsatib turgan.

O'rta asrlarda barcha musulmon mamlakatlarida bo'lganidek Xorazmda ham ta'lim-tarbiya tizimi uch bosqichdan: boshlang'ich ta'lim, umumta'lim va oliy ta'lim bosqichlaridan iborat bo'lgan. Boshlang'ich ta'lim masjidlar qoshidagi maktablarda berilgan, u besh yilga mo'ljallangan va o'quvchilar 4-5 yoshdan qabul qilingan. O'g'il bolalar masjid imomlari, qizlar ayol xalfalar qo'lida tarbiyalangan. Boshlang'ich maktablarda arab yozuvi va o'qish, Qur'oni Karim va hadisdan olingan namunalar, abjad hisobi, she'riy kitoblar, pandnoma, axloq-odob o'qitilgan. O'quvchilar o'qitilish bosqichiga qarab «Haftiyakxon», «Abjadxon» va «Qur'onxon» deb yuritilgan.

Ta'lim-tarbiyaning ikkinchi va uchinchi bosqichi madrasalarda berilgan. Umumta'lim madrasalari xonlikning shahar, tuman va qishloqlarida faoliyat

ko'rsatgan. Mazkur madrasalarda maktab muallimlari, masjid imomlari va qozixona xizmatchilari tayyorlangan. Ta'limning yuqori, oliy bosqichi madrasai oliya yoki madrasat ul-ulum deb atalib, ular hozirgi universitet maqomiga ega bo'lgan. Bunday madrasalar Damashq, Bag'dod, Basra, Isfahon, Marv, Buxoro, Samarqand, Kat, Gurganj va Xiva kabi olimu fozillar ko'p bo'lgan markaziy shaharlarida faoliyat ko'rsatgan.

Madrasalarda talabalarning ta'lim va tarbiya olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ularga har kuni to'rt mahal issiq ovqat va iqtidorli talabalarga qo'shimcha mukofotlar ajratilgan.

Madrasalarda ichki tartib-intizomga qat'iy amal qilingan. Madrasa nizomini buzgan talaba va xizmatchilar uch marotabagacha ogohlantirilgan, kamchilik yana takrorlansa, bunday shaxslar madrasadan chetlashtirilgan. Lekin bunday ko'ngilsizlik juda kamdan-kam sodir bo'lgan. Madrasaning ichki hayotiga daxldor masalalar mutavalli, mudarrislardan tarkib topgan hay'at kengashida hal etilgan.

O'qituvchilik-mudarrislik eng mas'uliyatli va sharaflilik kasb hisoblangan. Eng iste'dodli, barcha bilimlardan xabardor, hurmat-e'tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o'tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan.

Madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko'rsatilgan. Mutavalli vaqf kirimlari, madrasaning moliyaviy xarajati, ta'mirlash, xodim va talabalarga to'lanadigan haq va boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Madrasa xizmatchilari, mudarrisleri va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ovqatlik don hisobidan ajratilgan.

Xorazmda o'sha davrdagi madrasalarning moliyaviy xarajatlari haqidagi ma'lumotlar bizgacha etib kelmagan. Biroq akademik B. Valixo'jaevning Samarqand madrasalari haqida bergan qimmatli ma'lumotlari Xorazm madrasalaridagi ahvolni tasavvur qilishga yordam beradi.

Xorazm madrasalarida ham boshqa joylardagi kabi haftaning 4 kuni: shanba, yakshanba, dushanba, seshanba rasmiy o'qish kunlari hisoblangan. Haftada ikki kun ya'ni chorshanba va payshanba kunlari mustaqil mutolaa kunlari, juma kuni esa dam olish kuni bo'lgan. Madrasalarda bir o'qish yili 7 oy davom etadi. O'qish yili mezon oyining birinchi kuni 21 sentyabrda boshlanib, hamal oyining birinchi kunida 21 martda tugallangan. Qolgan oylar ta'til kunlari hisoblanib, talabalar bu vaqtda xo'jalik ishlari bilan shug'ullanganlar.

Madrasalarda umumnazariy darslar tajribali, bilimli mudarris-allomalar tomonidan olib borilgan. Amaliy mashg'ulotlar alohida muallimlar tomonidan

o'tkazilgan: hofiz-qiroat bilan o'qishni, voiz-diniy va'zlarni, imom bo'lsa shariat sunnalari, namoz qoidalarini o'rgatgan. Madrasa dasturidagi darslar ikki guruhga, ya'ni ulumi naqliya (islomiy) va ulumi aqliya (dunyoviy) ilmlarga ajratilgan. Ulumi naqliyada Qur'oni Karim, hadisi sharif, fiqh ilmlari, ularga yozilgan sharhlar o'rgatilgan. Ulumi aqliyada dunyoviy fanlar: falakiyot, riyoziyot, ilmi nujum, al-jabr, kimyo, geometriya, geografiya, tarix, falsafa, adabiyot, mantiq, arab tili grammatikasi, musiqa, xattotlik san'ati, axloq-odob ilmlari o'rgatilgan. Madrasada o'qigan talabalar turkiy tillar bilan birga arab va fors tillarini mukammal bilib olganlar.

Madrasada arab, fors va turkiy allomalarning asarlaridan tashqari qadimgi hind va yunon olimlaridan Klavdiy Ptolomey, Sokrat, Platon, Aristotel va boshqalarning arab tiliga o'girilgan asarlari hamda ularga yozilgan sharhlar darslik sifatida o'qitilgan. Badiiy adabiyotga doir asarlardan Abulqosim Firdavsiy, Forobiy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy asarlari sevib o'rganilgan.

Madrasalarda bilim berishda asosan suhbat va munozara metodiga amal qilingan, talabalarning mustaqil fikrlashiga alohida e'tibor qilingan. Madrasai oliyalar nafaqat ta'lim-tarbiya, ayni vaqtda ular ilm-ma'rifat markazi ham bo'lgan. O'qish yili oxirida talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan imtihon topshirishgan. Imtihon bevosita otanolalar ishtirokida qabul qilingan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma-diplom topshirilgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlaganlar islomning etuk ulamolari: shayx, shayxulislom, huquqshunos qozi, mulla, imom, mudarris, maktab muallimi, davlat hokimiyatining mas'ul xodimi lavozimlarida xizmat qilganlar.

Madrasalar Sharqda fanning turli sohalarida shuhrat qozongan olimu fozillarni, shoiru adiblarni etkazib bergan. Urganch, Kat va Xiva madrasalarining shuhrati Sharqda juda keng tarqalgan, shu boisdan Sharq mamlakatlaridan ko'pgina talabalar ushbu shaharlarga ilm olish uchun kelganlar va ular shu erda o'qib keyinchalik islomiy va dunyoviy ilmlar sohasida Sharqning taniqli olimlari bo'lib etishganlar. Shulardan andalusiyalik (Ispaniya) Abu Hamid al-Garnotiy, shomlik (Suriya) Sharafiddin Muhammad ibn Nasr, jandlik Al-qozi Yoqub ibn al-Jandiy, xurosonlik Muhammad ibn Ahmad ibn Ali an-Nasaviy, nishopurlik Muhammad Abdujalil al-Umariy Rashididdin Vatvot, isfahonlik Abu Madar Sharif al-Isfahoniy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Urganch va Xiva madrasalarida islomiy va dunyoviy ilmlar sohasida xorazmlik allomalardan tashqari Sharqning turli mamlakatlaridan kelgan mashhur olimlar ham mudarrislik qilgan. Urganch va Xiva madrasalarida ta'lim olgan xorazmlik allomalardan Abu Abdulloh as-Sinoiy, Muhammad al-Gurganjiy, Muhammad ibn Arslon al-Xorazmiy, Abu Muayyad al-Xorazmiy, Abu Muhammad al-Xorazmiy va boshqalar keyinchalik Bag'dod, Damashq, Suriya, Iroq, Hijoz, Buxoro va Samarqand madrasalarida mashhur

olimlardan tahsil olib o'z bilimlarini oshirganlar. Ularning ko'plari shu o'lkalarda salohiyatli madrasalarda mudarrislik qilib shogirdlar etishtirishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маньковская Л. Ю. Булатова В. А. Памятники зодчества Хорезма. – Тошкент: 1978.
2. М. Turaeva. Milliy ta'lim tarixidan. // Fan va Turmush. №5. 2000.
3. Абдурасулов А. Хива (Тарихий-этнографик очерклар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
4. Рахимов Р.Р. Традиционное начальное обучение детей у народов Средней Азии (конес XIX начало XX вв). //Сборник музея антропологии и этнографии XVIII. АН СССР. - Л.: Наука. 1989.
5. Ivanov P.P. Ocherki po istorii Sredney Azii. Moskva-1958.
6. Uzbekistan xalqlari tarixi. T.: «FAN» 1993. II jild.